

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI**

**2015-2016 O'QUV YILIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM
MAKTABLARINING BITIRUVCHI 9-SINF O'QUVCHILARI
UCHUN ONA TILI, CHET TILI, TARIX, JISMONIY TARBIYA
FANLARIDAN YAKUNIY NAZORAT IMTIHON
MATERIALLARI VA METODIK
TAVSIYALAR**

TOSHKENT – 2016

Imtihon materiallari va tavsiyalar Respublika ta’lim markazi qoshidagi ilmiy-metodik kengashlar tomonidan muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

Maktab metodbirlashmalari imtihon biletlariga 15-20 % hajmda o‘zgartirishlar kiritishi mumkin.

Tuzuvchilar:

Ona tili

G. Ziyodullayeva –RTM, filologiya fanlari bo‘limi bosh metodisti.

Tarix

A.Zamonov –O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiglshtiruvchi-metodik markazning bo‘lim boshlig‘i.

N. Qudratova –RTM, ijtimoiy-iqtisodiy bilim asoslari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘limi bosh metodisti.

Chet tili

X.Isakdjanova – RTM, xorijiy tillar bo‘limi boshlig‘i.

Jismoniy tarbiya

F.Nadjimov - XTV, Bolalar sportini rivojlantirish boshqarmasi nazoratchi metodisti

Imtihon materiallarini ko‘paytirib tarqatish taqiqilanadi.

So‘zboshi

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining 2010- yil 8- iyundagi 23 va 11/QQ –son qarori bilan tasdiqlangan “ 5-9 - sinf o‘quvchilarining bilimlari sifatini nazorat qilishning reyting tizimi to‘g‘risida Nizom”ga muvofiq umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quv yili tamom bo‘lganidan so‘ng bosqichli nazoratlar va bitiruvchi sinflarda o‘qish tamom bo‘lganidan so‘ng yakuniy nazorat o‘tkaziladi. Bosqichli nazorat natijalariga ko‘ra o‘quvchining reytingi aniqlanadi va uni navbatdagi sinfga o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi.

Bosqichli va yakuniy nazorat materiallari Respublika ta’lim markazi tomonidan tayyorlanadi. Materiallarga ijodiy yondashgan holda o‘quv fani o‘qituvchilari bosqichli nazorat materiallariga o‘zgartirish kiritishi va ularni uslubiy birlashmalar muhokamasidan o‘tkazib, joriy etishlari mumkin.

O‘quvchilarning bilimini baholash ularning o‘quv fani mavzusi bo‘yicha tasavvurga ega bo‘lishi, mavzuning mohiyatini tushunib yetishi va aytib bera olishi, olgan bilimlarini amalda qo‘llay olishi, mustaqil mushohada yurita olishi, ijodiy fikrlay olishi va xulosa qabul qila olishi, masalalarni yecha olishi va amaliy topshiriqlarni bajara olishi kabi mezonlarga qarab amalga oshiriladi.

Metodik tavsiyada har bir fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda nazoratlarni yozma yoki og‘zaki holda o‘tkazilishini nazarda tutib, imtihon materiallari keltirilgan. Har fan bo‘yicha o‘quvchilarning javoblarini baholash bo‘yicha ball meyorlari berilgan. Ular namunaviy bo‘lib, o‘qituvchi undan ijodiy foydalanishi kerak.

Fanlar chuqr o‘rganiladigan maktab(sinf)lar uchun mazkur imtihon materiallariga qo‘srimcha ravishda savollar kiritiladi. Qo‘srimcha savollar fan o‘qituvchisi tomonidan tayyorlanib, tegishli uslubiy birlashma tomonidan muhokamadan o‘tkaziladi va maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi.

ONA TILI

IX SINF BITIRUVCHILARINING YAKUNIY ATTESTATSIYASI BO‘YICHA TAVSIYA

O‘quvchining ona tili ta’limi jarayonida egallagan ko‘nikma va malakalari uning og‘zaki nutqida namoyon bo‘lishi bilan birgalikda u yaratgan matnda ham aks etadi. 9- sinfda asosiy ko‘rsatkich fikrni mantiqiy izchillikda ona tilining keng imkoniyatlaridan foydalangan holda ravon va to‘g‘ri bayon eta olish malakasi, fikr bayon etilayotgan soha bo‘yicha o‘quvchining bilimlari kengligi va chuqurligi, tuzgan matnining imloviy (talaffuziy), uslubiy savodlilik darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli IX sinf bitiruvchilari ona tili fanidan yakuniy attestatsiyada **ijodiy bayon** yozadilar.

Ijodiy bayon ta’limiy bayonning murakkab turlaridan biri. Ijodiy bayon tanlangan matn mazmuniga o‘quvchining ijodiy yondashishi jihatidan bayonning boshqa turlaridan farq qiladi. Ijodiy bayon o‘quvchilarni tanlangan matnning badiiy jihatdan aniq va puxta, mantiqiy izchil, ijtimoiy hayot va voqelik bilan bog‘liq holda yoritishga, mustaqil ijodiy fikrlashga, ona tilining boy ifoda vositalaridan unumli foydalanishga o‘rgatish, yozma nutq malakalarini tarkib toptirish va savodxonlik darajasini oshirish, bu boradagi bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida yoziladi.

Ijodiy bayonda ko‘proq badiiy, ma’naviy-ma’rifiy masalalar, ijtimoiy va siyosiy hayot, fan va texnika yangiliklari, fanlararo bog‘liqlik to‘g‘risidagi mavzular yoritiladi.

O‘quvchilar bayonning quyidagi turlaridan foydalanib **ijodiy bayon** yozadilar.

- Matnga badiiy tasvir vositalarini kiritish orqali ijodiy bayon yozish.
- Boshlab berilgan matnni o‘z fikr-mushohadalari asosida davom ettirish
- Matn shaxsini o‘zgartirib ijodiy bayon yozish
- Grammatik topshiriqli ijodiy bayon yozish.

Ijodiy bayon yozish jarayonida o‘quvchilar quyidagilarga e‘tibor berishlari lozim:

- matnning mazmun-mohiyatini chuqur anglab olishi, nima haqda yozish kerakligini bilishi;
- matn mavzusiga oid ma’lumotlarni eslab qolishi;
- matn rejasini (sodda) tuzishi;
- reja asosida asosiy fikrlarni aniq, ketma-ket bayon etilishiga erishishi;
- matndagi voqeа-hodisalarni atroflicha mushohada etgan holda yoritishi;
- mavzuga doir o‘z mustaqil fikr-mulohazalarini yozishga erishishi;
- jumlalarni tuzishda uslubiy ravonlikka, imlo savodxonligiga e‘tibor berishi;
- ijodiy bayon qoralama nusxasi tayyor bo‘lgach, uni qayta o‘qib chiqishi;
- tayyor bo‘lgan yozma ishni oqqa ko‘chirishi.

Bayon matnlari ko‘p variantli tarzda tayyorlanadi. Har bir variantda bittadan matn bo‘lib, har bir matn bilan birga ijodiy bayon yozishning bir turi asosidagi

topshiriq beriladi. Bir o‘quvchi havola etilgan variantlardan (konvertdan) bittasini tanlab oladi. Undagi matn mavzusi doskaga yozib qo‘yiladi. Ijodiy bayon uchun berilgan topshiriq ham doskaga yozib qo‘yiladi. O‘qituvchi tomonidan ijodiy bayon matni bir (lozim bo‘lsa ikki) marta o‘qib eshittiliradi. O‘quvchilar eshitgan matn yuzasidan berilgan topshiriq asosida ijodiy bayon yozadilar. Ijodiy bayon hajmi kamida 3,5-bet bo‘lishi lozim.

Ijodiy bayon matnlari o‘qituvchi tomonidan tanlanadi va maktab metod birlashmasida muhokama qilinib ma’qullanadi. Ma’qullangan materiallar maktab rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining IX sinflarida o‘quvchilarining ta’lim tayyorgarligi darajasini baholashning reyting tizimiga ko‘ra ijodiy bayon quyidagi umumlashtirilgan BKM elementlari asosida tekshiriladi va baholanadi.

Bunda ijodiy bayon uchun ikkita baho, jumladan, mazmuniga va savodxonligiga (5 /5 tarzida) qo‘yiladi.

Bayonni baholash mezoni:

T/r	Bilim, ko‘nikma, malakalar	mazmuni	savodxonligi
1.	Reja mavzuga muvofiq tuzilgan, matn mazmuni to‘g‘ri bayon qilingan bo‘lsa; so‘z boyligi, ifoda qurilishi va uslubi adabiy til talablariga mos bo‘lib; mazmun va ifodada bir ikki xatoga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa; savodxonlikda qo‘pol bo‘lmagan bitta imlo yoki ikkita ishorat xatosi bo‘lsa; uslubiy xato bo‘lmasa.	5 ball	5 ball
2.	Matn reja asosida yoritilib, so‘z tanlashda va ifoda qurilishida har xillik bo‘lsa; mazmun va ifodada kamchilik bo‘lib, savodxonlikda 2 imlo, 2 ishorat va ikkitagacha uslubiy xato mavjud bo‘lsa.	4 ball	4 ball
3.	Mavzu to‘liq yoritilmagan, mavzudan qisman chetga chiqilgan bo‘lsa; aniq voqealar izohida nuqsonlarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa; so‘z boyligi va ifoda tuzilishida nochorlik sezilib tursa; savodxonlikda 3 tagacha imlo, 4 tagacha ishorat, 3 tagacha uslubiy xatoga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa.	3 ball	3 ball
4.	Matn mazmuni ko‘p buzilgan bo‘lsa; ish rejaga mos bo‘lmasa, fikr bayoni va qurilishida kamchilik bo‘lsa, fikrlar bir-biriga bog‘lanmasa; so‘z boyligi sayoz bo‘lib; mazmun va ifodada 5-6 tagacha nuqsonga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa; savodxonlikda 7 tagacha imlo, 7 tagacha ishorat va 7 tagacha uslubiy xatoga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa.	2 ball	2 ball

5	Me'yorlash «2» ball uchun belgilangan mezondan oshsa.	1 ball	1 ball

IJODIY BAYON UCHUN MATNLARDAN NAMUNA

TILINGNI AVAYLA...

Daraxtni kessalar, uning ildizidan bir shoxcha ko'karib o'rnini bosadi. Tanadagi qilich va o'q yarasi ham bitib ketadi. Lekin til yarasi hech vaqt tuzalmaydi. Qalbga sanchilgan so'z o'qini chiqarib bo'lmaydi. Badan zahardan, qalb yomon so'zdan o'ladi. Chunki so'z qilichi temir shamshirdan ham o'tkirroqdir.

Qilichdan yetgan jarohat tildan yetgan jarohatga qaraganda yengilroqdir. Chunki qilich badanni, til esa qalbni jarohatlaydi. Vujud yaxshi taom bilan jonlanganidek, qalb ham yaxshi so'zlardan orom oladi.

"Kimki ko'ngilni qattiq so'z bilan jarohatlar ekan, unga achchiq til zaharli nayzadek sanchiladi , - deganlar hazrat Navoiy. Ko'ngilda til nayzasining jarohati bitmas, u jarohatga hech narsa malhamlik qilmas. Agar bir ko'ngilda til nayzasining jarohati bordir, faqat yaxshi so'z va shirin til unga malham va rohatdir. Muloyim so'z-vahshiyarlarni ulfatga aylantiradi. Sehrgar - ohang bilan afsun o'qib, ilonni inidan chiqaradi. So'zda har qanday yaxshilikning imkonibor. Shuning uchun aytadilarki, nafasning joni bor".

Kim tilini yaxshilikka ishlatsa, quroldan ustalik bilan foydalanuvchi ovchi kabi bo'ladi. O'zi tushunmagan so'zga aralashaveradigan kishi nuqlu behuda o'q uzaveradigan noshud ovchiga o'xshaydi. Bir og'iz shirin so'z shunday qudratliki, u o'z joniga qasd qilmoqchi bo'lib turgan kishini hayotga qaytaradi.

(Tohir Malik. "Kelinlar daftariga" risolasidan)

Topshiriqlar:

1. Matn mazmunini so`zlab bering.
2. Matn rejasini tuzing.
3. Kuzatishlaringiz asosida til haqidagi o`z fikringizni qo'shib, to`liq bayon yozing

VATAN TUYG‘USI

... Inson o'zligini anglagani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg‘usi ildiz otib, ulg‘aya boradi. Bu ildiz qancha teran bo'lsa, tug‘ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo'ladi.

Albatta, jahon-keng, dunyoda mamlakat ko'p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakka-yu yagona. Bu go'zal yurt, bu muqaddas zamin faqat bizga atalgan. Mana shu ulug‘ tuyg‘u har birimizning dilimizga jo bo'lishi, hayotimiz mazmuniga aylanishini istardim.

Tarix haqiqati shuni ko'rsatadiki, tomirida milliy g'urur, Vatan ishqijo'sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi. Biz shunday ma'naviy muhit yaratishimiz

kerakki, yurtimizning har bir burchagida, barcha shahar va qishloqlarimiz qiyofasida Vatandan faxrlanish hissi ko‘zimizni, qalbimizni yashnatib tursin.

Bu haqida gapirar ekanmiz, ayni vaqtida, muhim bir masalaga alohida e’tibor qaratishimiz lozim. Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson o‘zini, eng avvalo, O‘zbekiston fuqarosi deb, shundan keyingina muayyan bir hudud vakili, aytaylik, xorazmlik, samarqandlik yoki Farg‘ona vodiysi farzandi deb his qilishi lozim. tabiiyki, bu holat har birimiz mansub bo‘lgan "mo‘jaz vatan"ning, tug‘ilib o‘sgan shahar yoki qisghloqning qadri va ahamiyatini aslo kamaytirmaydi. Biroq shuni esda tutish kerakki, haddan tashqari bo‘rttirib yuborilgan mahalliy vatanparvarlik millatning, xalqning jipslashuviga xalaqit beradi.

Biz vatan tuyg‘usini mana shunday yaxlit holda, ya’ni dunyoda yagona o‘zbek millati bor, xorazmlik, farg‘onalik, surxondaryolik o‘rtasida hech qanday farq yo‘q, ularning barchasi o‘zbek xalqining farzandi deb anglashimiz, yosh avlodimizni aynan shu ruhda tarbiyalashimiz zarur.

(Islom Karimov. "Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch"asaridan)

Topshiriqlar:

1. Matn mazmunini so`zlab bering.
2. Matn rejasini tuzing.
3. Ona –vatan, vatan mehri haqida o`z fikringiz va matn mazmuni asosida bayon yozing.

VIJDON

Burch tuyg‘usi hamda pushaymon bilan bog‘liq vijdon iztirobi odam bilan hayvon orasidagi muhim tafovutdir Aql va vijdonni o‘z huquqlaridan mahrum etib bo‘lmaydi. Ularga yolg‘onlash mumkinu, ammo ularni aldash qiyin. Sof vijdon eng odil hakamdir. Aldamchilik, bezbetlik, nomussizlik jandasini kiygan kimsagina o‘z vijdoni hukmidan qo‘rqmaydi. Vijdon egasini o‘ldirish mumkin, biroq yengib bo‘lmaydi.

Turli suhbatlarda "vijdoni azob chekdi" degan gaplarni eshitamiz. Vijdon azobi deyarli har bir odamni ozmi-ko‘pmi qiyab o‘tadi. Vijdonni donish ahli qalbni tirnaydigan tirnog‘i o‘tkir hayvonga o‘xshatganlar. Vijdon azobi baxtsizlikdan o‘zga narsa emas. Vijdonning yaralanishiga odamning o‘zi aybdor. O‘z irodasiga hokim-u o‘z vijdoniga qul bo‘lgan, vijdoni qaytargan narsalardan o‘zini tiya olgan odamga bu baxtsizlik rahna sololmaydi. Har qanday yara tuzalishi mumkin, biroq vijdon yarasi butunlay bitib ketmaydi."Mening hech qachon vijdonim qiyalmaydi", deb katta ketish durust emas. Vijdon azobi qo‘ldan ketgan fazilatlarning aks-sadosidir. O‘z aybini unutish esa oriyatsizlikka olib keladi.

Vijdon-aqlning qon tomiri, uning urishi bizni doim yaxshi va yomondan voqif etib turadi. Vijdonli odam xavfdan xoli, xiyonat qilguvchi esa halokat botqog‘ida yashaydi.

(Tohir Malik. "Kelinlar daftariga"risolasidan)

Topshiriqlar:

1. Matn mazmunini so`zlab bering.
2. Matn rejasini tuzing.
3. Vijdon haqida o`z fikrlaringiz va matn mazmuni asosida bayon yozing

MEHMON KUTISH ODOBI

Mehmondo'stlik ajoyib xislat bo'lib, odamlar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbek xalqi: "Mehmonxonang tor bo'lsa ham mehru diling keng bo'lsin", - deyishadi.

Mehmon tashrifi turlicha bo'ladi. Sog'inib, ataylab kelish, yo'l tushish tufayli oqibat yuzasidan tashrif yoxud biror ehtiyoj sabab. Har qanday holatda ham o'z nomi bilan mehmon.

Mehmon ehtiyoj yuzasidan kelgan bo'lsa, uni ortiqcha savollar bilan qiynamay, buni aytishga imkon berish kerak. Gaplarini diqqat bilan tinglagach, uni xijolatga qo'y may, so'riganini berishga yoki iltimosini bajarishga harakat qilish kerak. Paysalga solmay dasturxon tuzash va uydagi eng yaxshi ne'matlarni dasturxonga tortish zarur. Mehmonni ovqatlanish uchun ortiqcha majburlamay, mehmondorchilikni ovqat pishirish bellashuviga aylantirmaslik kerak. Shirin suhbat qurib, oila a'zolari bilan yaqindan tanishtirish lozim.

Mehmonning o'zi dasturxonni yig'ish taklifini bermaguncha dasturxon yig'ishtirilmaydi. O'z navbatida uy egasining vaqtini olmaslik, nafsi ochlik qilib ko'p yemaslik, mezbon ko'rsatgan joyga o'tirish, uni xijolatga qo'ymaslik, ziyofatdan so'ng xonadon sohibining haqqiga duo qilish mehmonning burchi hisoblanadi.

("Etiketning oltin kitobi" dan)

Topshiriqlar:

1. Matn mazmunini so`zlab bering.
2. Matn rejasini tuzing.
3. Mehmon kutish odobi haqida o`z fikringiz va matn mazmuni asosida bayon yozing.

ARASTUNING ISKANDARGA AYTGANLARI

Iskandar yunon yeridan azmi safar qilib ketar ekan, o'z ustodi Arastuga dedi: "Ey ustod, menga nasihat so'zlaridan aytsangiz!" Arastu unga dedi: "Doim ilm ol, ilm o'rganishdan hech vaqt or qilma! Bayt:

Ilm o'rganishdan tinma hech qachon,
Ilmsizlik o'ti kuydirar yomon!

Izzat va obro'yim oshsin desang, hech qachon nohaq ishga qo'l urma! Ishlarim doimo yaxshi va tartibli bo'lsin desang, faqat o'z manfaatingni o'ylab ish qilma! O'z

aybingni bilishga intil, chunki aybli odam har yerda ojiz bo‘ladi. Hamma yerda fikr va tadbir yuzasidan ish tut, aybingdan ogoh qilgan kishilarga g‘azab qilma”.

Arastu shu nasihatlarni aytib, Iskandar bilan xayrlashdi.

Ey o‘g‘lim, agar sen dunyoda baxt-u saodat topay desang, mening bu pandanasihatlarimga amal qilib, shu asosda ish tut. Sen qanchalik dono bo‘limagin, o‘zingni dono deya tasavvur qilma, shunda yana ham donoroq bo‘lasan. Nima bilsang, uni boshqalarga o‘rgat, ammo ilmni o‘z joyida ishlatalishni bil. So‘zni qisqa gapir, behuda takror qilmaginki, takror - umrni behuda sarf qilishdir. Oddiy odamlarga oddiy gapir, donolar bilan donolikka xos gaplash, har odamning fahm-u farosatiga moslab gapir, odamning fahm-u farosatini esa uning gapidan bilib olasan.

Kishining go‘zalligi libosida emas, balki tilidadir. Har narsagaadolat ko‘zi bilan boq, oqibat haqni nohaqdan ajratishni o‘rganasan. Nima eshitsang, unga amal qilishdan ehtiyyot bo‘l. Ishlarda o‘rtacha yo‘l tut. Haddan oshma! Qanchalik mukammal odam bo‘limagin, baribir kamtarona ish tut. Sen gavharing bilan emas, balki xislating bilan ko‘krak ker.

(“Hikmatlar qonuni” kitobidan)

Topshiriqlar:

1. Matn mazmunini so`zlab bering.
2. Matn rejasini tuzing.
3. Ilm o`rganish va donolik haqida o`z fikringiz hamda matn mazmuni asosida bayon yozing.

SHAXSIM - TASHQI QIYOFAM

Insonning tashqi qiyofasining o‘ziga xosligi nafaqat uning takrorlanmas shaxsini, ichki olaming go‘zalligi, jozibasini akslantiradi. Kimki o‘zining tashqi ko‘rinishi, o‘zini tutishi, ravon va ma’noli nutqi, xushmuomala fe’li, mehribonligi bilan o‘zi haqida yaxshi ko‘rinish yarata olsa, shubhasiz, omad eshiklarini osongina ocha oladi. Ko‘pincha iste’dodli va mehnatsevar, katta imkoniyatga ega odamlar kerakligicha tashqi ko‘rinishga e’tibor bermasligi bois ish faoliyatlarida yuqoriga ko‘tarila olishmaydi. Bunday omadsizlik asosan o‘z imkoniyati, kuch-qudratiga yetarli baho bera olmaslikdan, o‘ziga ishonmaslikdan kelib chiqadi.

O‘z tashqi qiyofasini yaratishda eng muhim narsa shuki, o‘z imkoniyatini yaxshi bilish, unga kerakli baho bera olish, muayyan vaziyatlarda o‘zini tuta olishdir. Avvalo, nimaga erishmoqchisiz- shuni oydinlashtirib olishingiz lozim. Chunki har bir doiraning o‘z qiyofasi bo‘ladi.

Unutmangki, pala - partish kiyingan kishini hech qayerda xush kayfiyat bilan kutib olmaydilar. Tashqi ko‘rinishingiz sizning qiziqishlaringizni, insonlarga bo‘lgan munosabatingizni, madaniyattingizni anglatadi.

(“Etiketning oltin kitobi”dan)

Topshiriqlar:

1. Matn mazmunini so`zlab bering.
2. Matn rejasini tuzing.

3. Kuzatishlaringiz asosida kiyinish odobi haqidagi o`z fikrlaringizni qo`shib, to`liq bayon yozing.

TARIX

9-sinf

Tushuntirish xati

“Tarix” fanidan yakuniy attestatsiya imtihonlari uchun taklif etilayotgan mazkur topshiriqlar umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari asosida tayyorlangan. Ushbu topshiriqlar biletlarda aks ettirilgan bo‘lib, har bir biletda to`rt yo`nalishdagi mavzu asosida to‘rttadan savol beriladi:

1. Jahon yoki O‘zbekiston tarixida mavjud bo‘lgan biror-bir joy nomlariga izoh beriladi va o‘quvchi mazkur savolga quyida belgilangan baholash mezoni asosida javob berishi kerak bo‘ladi.

Birinchi savol bo‘yicha o‘quvchilarining bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1.	Jahon yoki O‘zbekiston tarixida mavjud bo‘lgan biror-bir joy nomlariga izoh beriladi va o‘quvchi mazkur savolga quyida belgilangan baholash mezoni asosida javob berishi kerak bo‘ladi.	1 ball
2.	Qaysi hududda joylashganligini (haritadan ko`rsata olsa) ayta olishi;	1 ball
3.	Hududning qaysi davrlarda shu nom bilan atalganini bilishi;	1 ball
4.	Shu hudud bilan bog`liq birorta tarixiy voqeadan misol keltirishi;	1 ball
5.	Jahon haqida darslikdan tashqari qo`shimcha ma`lumot bera olishi.	1 ball
	Jami:	5 ball

2. O‘zbekiston va Jahon tarixi darsida o‘rganiladigan tarixiy me’moriy inshootlardan biri beriladi. Masalan: Toj Mahal maqbarasi.

Ikkinchi savol bo‘yicha o‘quvchilarining bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1.	Obida qayerda bunyod etilganligini to‘g‘ri aytishi;	1 ball
2.	Obida qurilgan sanasi yoki davrini to‘g‘ri aytishi;	1 ball
3.	Obidaning kim yoki kimlar tomonidan qurilganini to‘g‘ri aytishi;	1 ball
4.	Inshootning umumiy ko`rinishini tasvirlay olishi;	1 ball
5.	Obidaning qanday maqsadda qurilganligini to‘g‘ri aytishi.	1 ball
	Jami:	5 ball

3. Biletdagi uchinchi topshiriq dunyo ilm-fani va madaniyatiga hissa qo‘sghan dunyo allomalaridan biri haqidagi savoldan iborat bo‘ladi. Masalan: Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy hayoti va faoliyati.

Uchinchi savol bo‘yicha o‘quvchilarining bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1.	Allomaning yashagan yillari (yoki davri)ni to`g`ri aytishi;	1 ball
2.	Allomaning hayoti haqida ma`lumot berishi;	1 ball

3.	Qaysi fan sohalarida ijod qilganligi haqida ma'lumot berishi;	1 ball
4.	Allomaning yozgan asarlari yoki amalga oshirgan ishlaridan misollar keltirishi;	1 ball
5.	Allomaning insoniyat tarixi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida fikr bildirishi.	1 ball
	Jami:	5 ball

4.O'zbekiston va Jahon tarixi darsida o'rganiladigan mavzulardagi atamalarga izoh beriladi.

To`rtinchı savol bo'yicha o'quvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1.	Tarixiy atamaning lug`aviy ma`nosini to'g'ri aytishi;	1 ball
2.	Atamaga to'g'ri izoh bera olishi;	1 ball
3.	Atamaning paydo bo`lgan hududi va davrini to`g`ri aytishi;	1 ball
4.	Atama qo'llanilgan tarixiy voqealardan misollar keltira olishi;	1 ball
5.	Atamaning qaysi tildan kelib chiqqanligini bilishi.	1 ball
	Jami:	5 ball

Izoh: har bir yo'naliш bo'yicha ballar yaxlitlanib (Bunda yaxlitlangan ball 4,5dan past bo'lsa – 4 baho, yuqori bo'lsa – 5 baho. Masalan: $5+4+5+4=14:3=4,6$ yaxlitlansa 5 baho, $4+4+5+4=13:3=4,3$ yaxlitlansa 4 baho), yakuniy attestatsiya imtihoni sinovining yakuniy bali sifatida sinf jurnalining "O'zbekiston tarixi" sahifasiga qo'yiladi.

Eslatma: O'quvchilarga bilet olganlaridan keyin tayyorgarlik ko'rishlari uchun 15, javob berish uchun esa 10 daqiqa vaqt beriladi.

Imtihon savollariga maktab metodbirlashmasi qarori bilan tuzatishlar, qo'shimchalar va takliflar kiritilishi mumkin. Imtihon topshirish jarayonida o'quvchi o'z fikrini faqat darslik materiallari asosida emas, balki boshqa manbalarga tayangan holda ham bayon qilishi mumkin. Shuningdek, tarix fani chuqurlashtirib o'qitiladigan sinf va maktablarda imtihon biletlari 5 ta savoldan iborat bo'ladi. Tarix fani chuqurlashtirib o'qitiladigan sinf va maktablarning imtihondagi beshinchi savollari o'qituvchi tomonidan tuzilib, maktab metodbirlashmasi tomonidan tasdiqlanadi. Savol tuzishda umumta'lim maktablarida maxsus kurs sifatida o'qitiladigan Prezident Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida", "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir" nomli asarlari hamda "Dunyo dinlari tarixi" darsliklariga oid ma'lumotlardan iborat bo'ladi. Beshinchi savol yuzasidan baholash mezoni ham maktab metodbirlashmasi tomonidan shakllantiriladi.

1-bilet

1. Registon maydoni.
2. Tillashayx masjidi.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va faoliyati.

4. “Universitet” atamasiga izoh bering.

2-bilet

1. Namangan shahri.
2. Abdullaxon madrasasi.
3. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy hayoti va faoliyati.
4. “Mutaassib” atamasiga izoh bering.

3-bilet

1. Mesopatamiya davlati.
2. Sherdor madrasasi.
3. Alisher Navoiy hayoti va faoliyati.
4. “Respublika” atamasiga izoh bering.

4-bilet

1. Galliya davlati.
2. Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati.
4. “Demokratya” atamasiga izoh bering.

5-bilet

1. Qo‘qon shahri.
2. Mir Arab madrasasi.
3. Mirzo Ulug‘bek hayoti va faoliyati.
4. “Fath” atamasiga izoh bering.

6-bilet

1. Marg`ilon shahri.
2. Sulton Murodbek madrasasi.
3. Imom al-Buxoriy hayoti va faoliyati.
4. “Parlament” atamasiga izoh bering.

7-bilet

1. Italiya davlati.
2. Aleksandr mayog‘i.
3. Ahmad al-Farg‘oniy hayoti va faoliyati.
4. “Bug‘ro” atamasiga izoh bering.

8-bilet

1. Le de Frans viloyati.
2. Ismoil Somoni maqbarasi.
3. Abu Ali ibn Sino hayoti va faoliyati.
4. “Senzura” atamasiga izoh bering.

9-bilet

1. Shosh shahri.
2. Ismoilxo‘ja minorasi.
3. Abu Mansur al-Moturidiy hayoti va faoliyati.
4. “Jadid” atamasiga izoh bering.

10-bilet

1. Baqtriya davlati.
2. Nurillaboy saroyi.
3. Abu Bakr Narshaxiy hayoti va faoliyati.
4. “Ultimatum” atamasiga izoh bering.

11-bilet

1. Arkapol shahri.
2. Minorai Kalon.
3. Ahmad Donish hayoti va faoliyati.
4. “Sunniy” atamasiga izoh bering.

12-bilet

1. Binkent shahri.
2. Xeops ehromi.
3. Shermuhammad Munis hayoti va faoliyati.
4. “Manifest” atamasiga izoh bering.

13-bilet

1. Koreya davlati.
2. Go‘ri Amir maqbarasi.
3. Bahouddin Naqshband hayoti va faoliyati.
4. “Inoq” atamasiga izoh bering.

14-bilet

1. Buxoro shahri.
2. Bog‘i Dilkusho.
3. Hofiz Ko`hakiy hayoti va faoliyati.
4. “Separatizm” atamasiga izoh bering.

15-bilet

1. Bobil davlati.
2. Baroqxon madrasasi.
3. Mirzo Abdulqodi Bedil hayoti va faoliyati.
4. “Deligat” atamasiga izoh bering.

16-bilet

1. Movarounnahr hududi.
2. Sin Shixuandi maqbarasi.

3. Berdimurod Qarg‘aboy og‘li – Berdaq hayoti va faoliyati.
4. “Federatsiya” atamasiga izoh bering.

17-bilet

1. Kavkazorti hududu.
2. Tillakori madrasasi.
3. Nikolay Kopernik hayoti va faoliyati.
4. “Dorug‘a” atamasiga izoh bering.

18-bilet

1. Andijon shahri.
2. Luvr muzeyi.
3. Abu Rayhon Beruniy hayoti va faoliyati.
4. “Shia” atamasiga izoh bering.

19-bilet

1. Choson davlati.
2. Sherg‘ozixon madrasasi.
3. Abulg‘oziy Bahodirxon hayoti va faoliyati.
4. “Tanob” atamasiga izoh bering.

20-bilet

1. Afrosiyob shahri.
2. Piza minorasi.
3. Burhonuddin Marg‘inoniy hayot va faoliyati.
4. “Migratsiya” atamasiga izoh bering.

21-bilet

1. Qarshi shahri.
2. Ozodlik haykali.
3. Isaak Nyuton hayoti va faoliyati.
4. “Iyeroglif” atamasiga izoh bering.

22-bilet

1. Tro`ya davlati.
2. Muhammad Rahimxon madrasasi.
3. Muhammad Rizo Ogahiy hayoti va faoliyati.
4. “Miniatyura” atamasiga izoh bering.

23-bilet

1. Xuanxe daryosi.
2. Eyfel minorasi.
3. Mahmud az-Zamaxshariy hayoti va faoliyati.
4. “Ulus” atamasiga izoh bering.

24-bilet

1. Britaniya davlati.
2. Tojmahal maqbarasi.
3. Ahmad al-Farg‘oniy hayoti va faoliyati.
4. “Islom” atamasiga izoh bering.

25-bilet

1. Konstantinopol shahri.
2. Ulug‘bek madrasasi (Samarqand).
3. Boborahim Mashrab hayoti va faoliyati.
4. “Bibliya” atamasiga izoh bering.

26-bilet

1. Oltin O`rda hududi.
2. Minorai Kalon.
3. Mirza Muhammad Haydar hayoti va faoliyati.
4. “Autodafe” atamasiga izoh bering.

27-bilet

1. Saksoniya davlati.
2. Semiramida osma bog‘lari.
3. Ahmad Yassaviy hayoti va faoliyati.
4. “Anneksiya” atamasiga izoh bering.

28-bilet

1. Aleksandriya shahri.
2. Gelios haykali.
3. Aleksandr Sergeyevich Pushkin hayoti va faoliyati.
4. “Duma” atamasiga izoh bering.

29-bilet

1. Vizantiya davlati.
2. Galikarnas maqbarasi.
3. Abu Nasr Farobiy hayoti va faoliyati.
4. “Qur`on” atamasiga izoh bering.

30-bilet

1. Misr davlati.
2. Oqsaroy obidasi.
3. Daniel Defo hayoti va faoliyati.
4. “Anarxizm” atamasiga izoh bering.

CHET (INGLIZ, NEMIS VA FRANSUZ) TILI

9-sinf

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari uchun chet tillardan bosqichli nazorat imtihonlari tinglab tushunish va og‘zaki nutq ko‘nikmasini aniqlash yuzasidan o‘tkaziladi. Bosqichli nazorat imtihonlarini o‘tkazishdan maqsad o‘quvchilarning chet til ta’limi bo‘yicha olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlashdan iborat. Bosqichli nazorat imtihonlarini o‘tkazish o‘quv dasturlari asosida 2 bosqichda amalga oshirilib, 1-topshiriq tinglab tushunish bo`yicha 5 ta bilet, har bir biletda 1 tadan topshiriq, 2-topshiriq 25 ta biletidan iborat bo`lib, har bir biletda 1 tadan topshiriq beriladi. Chet tillari chuqurlashtirib o‘qitiladigan sinflar va maktablar uchun muktab uslubiy birlashmasi kelishilgan holda qo‘srimcha uchinchi topshiriq beriladi.

Birinchi topshiriq – audioresurs bo‘yicha tinglab tushunish.

Sinf xonasida har bir partada 1 nafardan o‘quvchi joylashtirilib, tanlangan biletagini mavzu yuzasidan audiolavha eshittiriladi. O‘quvchilarning har biriga varaqlar berilib, audiolavhani tinglagan holda tushirib qoldirilgan so‘zlarni to‘ldirib yozishlari talab etiladi. Varaqlardagi bo‘sh qoldirilgan so‘zlar soni 5 tadan oshmasligi lozim. Audiolavha 3 martagacha eshittirilishi mumkin. Ushbu topshiriq 5 ballik tizim asosida to‘g‘ri yozilgan har bir so‘z 1 balldan baholanadi. Audiolavhalar o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalardan kelib chiqqan holda tanlanadi.

Ikkinchi topshiriq – biletda ko‘rsatilgan mavzular yuzasidan suhat.

Bunda o‘quvchi mavzu yuzasidan o‘z fikrini chet (ingliz, nemis va farsuz) tilida erkin bayon etishi kerak. O‘quvchi tomonidan bildirilgan fikrlar grammatik va fonetik jihatdan to‘g‘ri bayon etilishi, nutqining ravonligi, mavzudan chetlashmaganligi va bildirilgan fikrlarning mantiqan bir-biri bilan bog‘liqligi hisobga olinadi. Fikrlar bayon etilayotganda, so‘z birikmalarining noto‘g‘ri ifodalanishi, grammatik va fonetik qoidalarga rioya qilmaslik hollari bir gapning o‘zida ikki va undan ortiq kuzatilsa, o‘sha gap hisobga olinmaydi. O‘quvchi mavzuni yoritib bera olmasa, o‘qituvchi o‘quvchiga mavzu yuzasidan 3 ta savol berishi mumkin. Har bir berilgan savolga javob 5 ballik tizim asosida baholanadi. Masalan: 1-savolga 3 ball, 2-savolga 5 ball, 3-savolga 4 ball qo‘ylisa, baholar umumlashtirilib, o‘rtacha ball chiqariladi. $3+5+4=12:3=4$ ball. O‘quvchilarni baholashda ball ular egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalardan kelib chiqib belgilanadi.

2-topshiriq bo‘yicha baholash mezoni

Baholash mezoni	Ball
Berilgan mavzuni to‘liq og‘zaki bayon qila olsa, mavzu yuzasidan fikr bildirsa va uni asoslay olsa, to‘g‘ri talaffuz va intonatsiya bilan gapirsa, berilgan mavzuga doir savollarga to‘liq javob bera olsa.	“5”
Berilgan mavzuni qiyinchilik bilan og‘zaki bayon qila olsa, fikr tor	“4”

bildirsa, biroz noto‘g‘ri talaffuz va intonatsiya bilan gapirsa, berilgan mavzuga doir savollarga qiyinchilik bilan javob bera olsa.	
Berilgan mavzuni qisman qiyinchilik bilan og‘zaki bayon qila olsa, fikr bildira olmasa, to‘g‘ri talaffuz va intonatsiyaga rioya qilmasa, berilgan mavzuga doir savollarga qisman javob bera olsa.	“3”
Berilgan mavzuni tushunarsiz tarzda bayon qila olsa, fikr bildira olmasa, to‘g‘ri talaffuz va intonatsiyaga rioya qilmasa, berilgan mavzu mazmuniga doir savollarga tushunarsiz tarzda javob bersa.	“2”
Berilgan mavzuni bir-biri bilan bog‘lanmagan jumlalar bilan og‘zaki bayon qila olsa, fikr bildira olmasa, to‘g‘ri talaffuz va intonatsiyaga rioya qilmasa, matn mazmuniga doir savollarga javob bera olmasa.	“1”

1-TOPSHIRIQ

1-BILET

1. “Kasblar” mavzusida audiolavha.

2-BILET

1. “Ta’lim tizimi” mavzusida audiolavha.

3-BILET

1. “Telefondagi suhbat” mavzusida audiolavha.

4-BILET

1. “O‘zbekistondagi xalqaro tashkilotlar” mavzusida audiolavha.

5-BILET

1. “Mening ish kunim” mavzusida audiolavha.

2-TOPSHIRIQ

1-BILET

1. “Atrof-muhit muammolari” mavzusida suhbat.

2-BILET

1. “Darsdan keyingi mashg‘ulotlar” mavzusida suhbat.

3-BILET

1. “Tili o‘rganilayotgan mamlakatlar bayramlari” mavzusida suhbat.

4-BILET

1. “Darsdan keyingi mashg‘ulotlar” mavzusida suhbat.

5-BILET

1. “Mening sevimli san`atkorim” mavzusida suhbat.

6-BILET

1. “Kino va teatr” mavzusida suhbat.

7-BILET

1. “Olamga sayohat” mavzusida suhbat.

8-BILET

1. “Dunyoning yetti mo‘jizasi” mavzusida suhbat.

9-BILET

1. “Men yoqtirmagan odatlar” mavzusida suhbat.

10-BILET

1. “Yil fasllari” mavzusida suhbat.

11-BILET

1. “Tili o‘rganilayotgan mamlakatning geografik joylashuvi” mavzusida suhbat.

12-BILET

1. “O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakatdagi ta’lim tizimi” mavzusida suhbat.

13-BILET

1. “Ona tabiat muammolari” mavzusida suhbat.

14-BILET

1. “Maishiy xizmat ko‘rsatish” mavzusida suhbat.

15-BILET

1. “O‘zbek milliy urf-odatlari” mavzusida suhbat.

16-BILET

1. “Yurtimizning diqqatga sazovor joylari” mavzusida suhbat.

17-BILET

1. “O‘zbekiston Respublikasining bayrog‘i, madhiyasi va gerb” mavzusida suhbat.

18-BILET

1. “Oziq- ovqat rastalarida” mavzusida suhbat.

19-BILET

1. “Zamonaviy axborot texnologiyalari” mavzusida suhbat.

20-BILET

1. “Mening uyim” mavzusida suhbat.

21-BILET

1. “Mening o‘tgan kunim” mavzusida suhbat..

22-BILET

1. “Maktab imtihonlari” mavzusida suhbat.

23-BILET

1. “Kelajakda tanlagan kasbim” mavzusida suhbat.

24-BILET

1. “Mening sevimli kitobim” mavzusida suhbat.

25-BILET

1. “Aloqa vositalari turlari” mavzusida suhbat.

JISMONIY TARBIYA

Tushuntirish xati

Barchamizga ma'lumki XXXI yozgi Olimpiya va XV Paralimpiya o‘yinlari 2016 yilning 5-21 avgust kunlari Rio-de-Janeyro shahri (Braziliya)da o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Mazkur o‘yinlar Janubiy Amerika hududida ilk bor tashkil etilgan Olimpiada sifatida tarix sahifasiga bitiladi.

Ushbu nufuzli musobaqalarga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 23-fevraldagи 1923-sonli qarori hamda uning ijrosi yuzasidan Respublika komissiyasining bir necha bor yig‘ilish bayonlari qabul qilingan bo‘lib, belgilangan vazifalar ijrosi ta’minlash, sport-ta’lim muassasalarida yetuk sportchilarni tayyorlash orqali Xalqaro sport musobaqalarida ishtiroki ta’minlanib kelinmoqda.

2003-yildan buyon (2015-yil 15-noyabr holatiga ko‘ra) jami **484 ta** Xalqaro sport tadbirlarida Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘arma mablag‘lari hisobidan **5257 nafar** (*shundan 1955 nafari qizlar*) o‘quvchi-yoshlar ishtirok etishgan bo‘lib,, jami **1879 ta** medallarni qo‘lga kiritishdi (*714 ta oltin, 530 ta kumush va 635 ta bronza*).

Shu munosabat bilan, umumta’lim maktab o‘quvchilariga Olimpiada o‘yinlari va uning kelib chiqishi, O‘zbekistonga kirib kelilshi hamda taraqqiy etishi, hozirgi kunda mamlakatimizda qaratilayotgan e’tiborlar yuzasidan nazariy bilimlar berilishi tavsiya etiladi.

Xalq ta’limi vazirligining buyrug‘iga asosan jismoniy tarbiya fanidan IX sinf o‘quvchilari amaliy va nazariy qismlaridan yakuniy nazorat imtihonlarini topshiradi.

Yakuniy nazorat imtihonini o‘tkazishdan asosiy maqsad, DTS va o‘quv dasturida berilgan mezon talablari asosida o‘quvchilarning olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashdir.

Yakuniy nazorat imtihonlarini talab darajasida o‘tkazish maqsadida 10 kun oldin mакtab sport maydoni (zali) va sport anjomlari, imtihon materiallari tayyorlab qo‘yilishi kerak.

Maktab direktorining buyrug‘i bilan imtihonni qabul qilish kuni, hay’at a’zolari, qo‘shimcha maslahat darslari va amaliy mashg‘ulotlar jadvali tashkil qilinadi. Yakuniy nazorat imtihoni bo‘yicha hay’at a’zolari tarkibi jami 3 kishidan iborat bo‘lib, unga imtihon raisi (maktab direktori), imtihon qabul qiluvchi (jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi), assistant (yordamchi, jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi) kiradi. Shu bilan birga yakuniy nazorat imtihonning amaliy qismida tibbiy xodim bo‘lishi shart.

Umumiy o‘rta ta`lim maktabining sharoiti va mavjud sport anjomlaridan kelib chiqqan holda yakuniy nazorat imtihonining amaliy mashg‘ulot biletlariga 25% gacha o‘zgartirish kiritishlari mumkin. Shu bilan birga tibbiyot muassasalari tomonidan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlaridan ozod etish to‘g‘risidagi ma’lumotnomaga ega bo‘lgan o‘quvchilar yakuniy nazorat imtihonidan ozod e’tiladi. Ushbu o‘quvchilarning yakuniy ballari o‘quv yilida (choraklar davomida) olgan baholaridan kelib chiqqan holda qo‘yiladi. Mazkur masalalar mакtabning pedagogik kengashida ko‘rib chiqilib, muhokama etilgan bo‘lishi shart.

Yakuniy nazorat imtihoni materiallari. Yakuniy nazorat imtihon materiali hujjatlari har bir sinf uchun alohida (10 talik fayl) bo‘lishi kerak. Bunda o‘quvchilar (ozod etilgan o‘quvchilar alohida) ro‘yxati; imtihon biletlari 11 ta (amaliy mashg‘ulot biletlari og‘il va qiz bolalar uchun 5 tadan, nazariy savollar 1 ta) muhrlangan konvertda bo‘lishi; imtihon dalolatnomasi (muhrlangan konvertlar o‘quvchilar tomonidan tortilib, ochilganligi hususida), bayonnomalar (o‘quvchilar amaliy va nazariy qismlardan erishgan me’yor natijalari hamda ballarini qayd etib borish uchun); nazariy qism uchun katak daftari (maktab shtampi qo‘yilgan) bo‘lishi lozim.

Amaliy va nazariy qism bir kunda o‘tkazilishi, konvertlari imtihon kuni ochilishi hamda dalolatnomalar, bayonnomalar imtihon jarayonida to‘ldirib borilishi shart.

Yakuniy nazorat imtihonining nazariy qismini o‘tkazish tartibi. Nazariy qism oldindan tayyorlab qo‘yilgan sinf xonasida o‘tkaziladi. Bunda nazariy qism konverti ixtiyoriy biror-bir o‘quvchi tomonidan ochiladi. Har bir o‘quvchi nazariy qism uchun tayyorlab qo‘yilgan 30 ta savol biletlaridan bittasini tortadi. Savol biletlariga (nazariy qism uchun mакtab shtampi qo‘yilgan katak daftarlariga) yozma ravishda javob berib, imtihon hay’at a’zolariga o‘qib beradi.

Yakuniy nazorat imtihonining amaliy mashg‘ulotlarini o‘tkazish tartibi. Yakuniy nazorat imtihonining amaliy qismini topshirish uchun sinf ikki guruhga, ya’ni o‘g‘il va qiz bolalarga bo‘linadi. Har bir guruhdan bittadan o‘quvchi (5 ta) konvertlardan birini tortadi. Shu tortilgan konvertdagi bilet bo‘yicha o‘z guruh

a'zolari bilan ko'rsatilgan tartibda birin-ketin topshiradi. Qolgan konvertlar ochilmaydi.

Amaliy imtihon sinovlarni qabul qilish metodikasi:

60 metrga yugurish. 60 metr masofaga yugurish yo'lakchasi tekis va qoplamali bo'lishi kerak. Start, marra va yo'lakcha chiziqlari aniq chizilgan hamda masofa to'g'ri o'lchanigan bo'lishi lozim. Yugurish past startdan amalga oshiriladi. Natija 0,1 soniyagacha aniqlanadi.

1000, 2000 metrga yugurish. Yugurish tekis maydonda olib boriladi. Yugurish vaqtida to'g'ri nafas olib chiqarish va yugurish qoida texnikasiga ahamiyat qaratiladi. Yugurish yuqori startdan amalga oshiriladi. Vaqt 1 soniyagacha aniq o'lchanadi.

4x10 metrga mokisimon yugurish. Yugurish ikki tomonidan chizilgan, 10 metrli masofa yo'lakcha ichida bajariladi. Yugurish yuqori startdan amalga oshiriladi. Yugurish jarayonida burilishlarda oyoq uchlari chiziqdan o'tgan holda bajarilishi lozim.

Turgan joyidan uzunlikka sakrash. Sakrash chizig'i yoniga kelib, qo'llarni oldinga-yuqoriga siltab, ikki oyoqda oldingadepsinib sakraydi. Uch urinishdan eng yaxshi natijasi hisobga olinadi. Natija start chizg'idan sakrab tushgan joygacha oyoq tovon orqasidan aniq 1smgacha o'lchanadi.

Arg'amchida sakrash. Arg'amchini 1 daqiqa davomida ikki oyoqda sakrash orqali bajariladi. Sakrash jarayonida oyoq hamda boshqa tana a'zolari tegib sakrash majbur to'xtab qolsa, imtihon topshiruvchi vaqt tugagunga qadar hisobni davom ettiradi. Umumiy sakrash hisobi bayonnomaga yoziladi.

Baland turnikda osilib tortilish. Qo'llar to'g'ri osilib turgan holatdan (oyoqlar yerga tegmaydi) iyakni to'g'risigacha tortiladi. Qo'l tirsaklari to'liq uzatilgan holda gavda yana pastga tushiriladi. Osilib tortilishda, gavda har tomonlarga harakatlanishi, oyoqlarni bukib ko'tarib tortilishlar hamda iyakgacha bajarilmaganlari hisobga kirmaydi. To'g'ri tortilishlar soni bayonnomaga yoziladi.

Yotgan holatda gavdani ko'tarish. D.h – chalqancha yotish (gimnastika matida) – oyoqlar uzatilgan, qo'llar bosh orqasida, barmoqlar bir-biriga qulf qilingan holatida. Yordamchi o'quvchi imtihon topshiruvchining oyoq yuzasini polga bosib turadi. Imtihon topshiruvchi bir tekis ko'tarilib tizzaga qo'l bilaklarini tekkazadi. Orqaga harakatlanib qaytishda gimnastika matiga yelkalar to'liq tegishi lozim. 1 daqiqa davomida ko'tarilish hisobi natijalari bayonnomaga yoziladi.

Yakkacho'p ustida muvozanatni saqlash ("qaldirg'och" turish). O'quvchi asosiy turish holatidan oldinga qisqa qadam tashlaydi (orqadagi oyoq uchida turadi), oldinga engashib, engashgan holatni saqlagan tarzda muvozanatni saqlab turish. Orqada turgan oyoqni imkoniboricha orqaga ko'proq ko'tarish. Qo'llar yonda yoki oldinga-yonga, yoki bir qo'l oldinga-yuqoriga, boshqasi yonga holatlarida amalga oshiriladi. Mashqni birinchi bir oyoqda, keyin ikkinchi oyoqda bajariladi. Mashqni bajarilish texnikasini e'tiborga olgan holda, talab etilgan me'yor bo'yicha baholanadi va bayonnomaga yoziladi. Yakkacho'p ustida oyoq uchida qo'llar yonda muvozanat saqlab yurish, oyoq uchida ko'tarilib burulishlar, o'ng (chap) oyoqlarda "qaldirg'och" hosil qilish, oyoqlarni kerib orqaga siltanish bilan kerishib sakrab tushish.

Basketbol. Imtihon topshiruvchi to‘pni ko‘krakdan halqaga jarimadan tashlaydi. 8 imkoniyatdan aniq tushirilgan to‘plar soni hisobga olinadi.

Voleybol. Imtihon topshiruvchi 1,5 metr radiusli aylana ichidan chiqmasdan 1 daqiqa davomida to‘pni bosh ustidan yuqoriga uzatadi va qabul qiladi. To‘pni uzatishni bosh ustidan 60 – 70 sm balandlikda amalga oshirish. Aylana ichidan chiqib to‘p uzatilib qabul qilingan to‘p hisoblanmaydi, to‘pni uzatishda va qabul qilishda qo‘l kaftining barmoqlari bilan oshirilishiga ahamiyat qaratish lozim. O‘quvchilar to‘pni yuqoridan yoki pastdan belgilangan nuqtaga to‘g‘ri oshiradi (podacha). Masalan: o‘qituvchi tomonidan (gardish yordamida) maxsus belgilagan maydon zonalariga aniq oshirishi kerak.

Qo‘l to‘pi. Imtihon topshiruvchi to‘pni yerga urib olib yurishni yugurish yo‘lakchasi ichida bajaradi. To‘pni yerga urib olib yurish 30 metr masofagacha bajarilib, texnikasiga ahamiyat qaratiladi. Natija 0,1 soniyagacha aniqlanadi.

Futbol. To‘p bilan jonglyorlik qilishni oyoqning uchi va tizzalar bilan amalga oshirish mumkin. To‘p bilan jonglyorlik qilishni o‘quvchi 3 urunishda bajarib ko‘rsatadi, shundan eng yaxshi bajarilgani hisobga olinadi va bayonnomaga yoziladi.

Yakuniy nazorat imtihoni bo‘yicha o‘quvchilarini baholash. O‘quvchilarini amaliy sinov mashg‘ulotlari bo‘yicha baholashda erishgan me’yorlariga ko‘ra baholanadi. Nazariy qism bo‘yicha tortilgan savolga aniq javoblari hamda jismoniy tarbiya va sportga bog‘liqlik asosida bergen ma’lumotlariga ko‘ra baholanadi. O‘quvchining har bir amaliy mashg‘ulotidan va nazariy savolga bergen javoblari 5 ballik tizim asosida baholanadi. Ballar umumlashtirilib o‘rtacha baho chiqariladi. Masalan: $5+4+4+4+4=21:5=4.2$ yaxlitlangan holda 4 baho qo‘yiladi.

1. Yakuniy nazorat imtihon dalolatnomasini to‘ldirish namunasi.

D A L O L A T N O M A

Tuzildi ushbu dalolatnoma, shu haqdakim 2016 yil “ ” may kuni _____ matabning 9-“ ” sinf o‘quvchilari tomonidan yakuniy nazorat imtihon konvertlari ochildi.

Biz kim dalolatnoma tuzuvchilar: imtihoni hay'ati raisi _____ (F.I.) _____, imtihon oluvchi _____ (F.I.) _____, imtihon assisenti _____ (F.I.) _____ lar nazorati ostida amalga oshirildi. Sinf o‘quvchilaridan _____ nafari ishtirop etdi.

Amaliy:

O‘g‘il bolalardan _____ (F.I.) _____ Bilet № _____ (imzo) _____ Qiz bolalardan _____ (F.I.) _____ Bilet № _____ (imzo) _____ tortildi.
Nazariy: _____ (F.I.) _____ (imzo) _____ tomonidan ochildi.

Imtihon hay'ati raisi: _____ (F.I.) _____ (imzo) _____

Imtihon oluvchi o‘qituvchi: _____ (F.I.) _____ (imzo) _____

Imtihon assistenti: _____ (F.I.) _____ (imzo) _____

M.O‘.

2. Yakuniy nazorat imtihon bayonnomasini to‘ldirish namunasi.

2016 yil _____-may №_____ umumiy o‘rta ta’lim maktabi
 9 - “___” sinf (o‘g‘il, qiz bolalar) Bilet №_____

B A Y O N N O M A S I

№	O‘quvchilarini F. I.	60 m yugurish		Gimnastika		Basketbol		Turgan joydan uzunlikka sakrash		Nazariy		Umumi y ball
		natija	bal 1	nati ja	bal 1	natija	ball	natija	bal 1	Bil et №	bal 1	
1.	Tohirovo O‘ktam	10,5	5	-	4	2	4	140	4	15	4	4
2.												
3.												

Imtihon hay’ati raisi: _____ (F.I.) _____ (imzo)

Imtihon oluvchi o‘qituvchi: _____ (F.I.) _____ (imzo)

Imtihon assistenti: _____ (F.I.) _____ (imzo)

M.O. “___” 2013 yil

Nazariy savollarga berilgan javoblarni baholash mezoni

T/r	Baholash mezoni	Ball
1.	Savol mazmunan to‘la ochib berilsa, fikrlari to‘liq hamda aniq bo‘lib, jismoniy tarbiya va sportga bog‘liq holda ifodalay olsa.	5
2.	Javob mazmunan to‘g‘ri, jismoniy tarbiya va sportga bog‘liq holda bo‘lib, lekin ikkilanish va taxmin bo‘lsa.	4
3.	Javob mazmunan to‘liq ochib berilmasa, qisman to‘g‘ri bo‘lib, tushunchalarni izohlashda bir qancha xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa.	3
4.	Javob mazmunan to‘liq ochib berilmasa, fikrlar va tushunchalar to‘g‘ri xulosalanmagan bo‘lib, xatolar ko‘p bo‘lsa.	2
5.	Javob mazmunan to‘liq ochib berilmasa, fikrlar va tushunchalar noto‘g‘ri talqin etilgan, xatolar ko‘p bo‘lsa.	1

Amaliy mashg‘ulotlarni baholash mezoni

T/r	Baholash mezoni	Ball
1.	Talab qilingan mashqlarni bajarishda mashq elementlari bajarilishi ketma-ketlik asosida va ular o‘rtasidagi bog‘lanish to‘g‘ri ishonchli bajarilgan bo‘lib, sport anjomlaridan foydalanishda xavfsizlik texnika qoidalariga rioya etgan bo‘lsa.	5

2.	Talab qilingan mashq erkin, ishonchli elementlarga bog‘liq holda bajarilib, 1-2 ta juz’iy xatoga yo‘l qo‘yilib, sport anjomlaridan foydalanishda xavfsizlik texnika qoidalariga rioya etgan bo‘lsa.	4
3.	Talab qilingan mashq ishonchsiz, elementlar qisman bajarilib, 3-4 ta juz’iy xatoga yo‘l qo‘yilib, sport anjomlaridan foydalanishda xavfsizlik texnika qoidalariga rioya etgan bo‘lsa.	3
4.	Talab qilingan mashq ishonchsiz, elementlar qisman bajarilib, 3-4 ta juz’iy xatoga yo‘l qo‘yilib, sport anjomlaridan foydalanishda xavfsizlik texnika qoidalariga rioya etgan bo‘lsa. Mashq bajarishda 3 tadan ortiq va juz’iy qo‘pol xatoga yo‘l qo‘yilsa.	2
5.	Talab qilingan mashq ishonchsiz, elementlar bajarilishida qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yilib, sport anjomlaridan foydalanishda xavfsizlik texnika qoidalariga rioya etilmasa, harakat sust bo‘lib, mashq to‘liq bajarilmasa.	1

NAZARIY SAVOLLAR

1. Inson salomatligiga salbiy ta’sir qiluvchi odatlar va ularning oqibatlari.
2. Gimnastika sport turi haqida. Gimnastikada foydalaniladigan sport anjomlarni sanab bering.
3. Egiluvchanlik deb nimaga aytildi? Egiluvchanlikni rivojlantirish uchun beriladigan mashqlarni tushuntirib bering?
4. Basketbol o‘yini haqida (qachon, qayerda va kim tomonidan o‘ylab topilgan hamda o‘yin maydoni o‘lchami, to‘pining og‘irligi, aylanasi) yozing.
5. Gандbol o‘yining asosiy qoidalari.
6. Shahsiy va jamoat gigiyenasi qoidalariga qanday rioya qilish kerak. “Sog‘lom turmush tarzi“ deganda nimani tushunasiz?
7. Respublikamizda joriy etilgan uch bosqichli sport musobaqalari haqida ma’lumot bering. “Umid nihollari“ sport musobaqalari qachondan boshlab o‘tkazilib kelinmoqda va qanday sport turlarini o‘z ichiga oladi?
8. Jismoniy mashg‘ulot jarayonida asosiy texnika xavfsizligi va shikastlanganda birinchi yordam ko‘rsatish.
9. Chaqqonlik deb nimaga aytildi? Chaqqonlikni rivojlantiruvchi mashqlarni tushuntirib bering?
10. Futbol o‘yini haqida (qachon, qayerda o‘ylab topilgan hamda o‘yin maydoni o‘lchami, to‘pining og‘irligi, aylanasi) yozing.
11. Yengil atletika nechta bo‘limga bo‘linadi va ularni sanab bering?
12. Chidamlilik deb nimaga aytildi? Chidamlilikni rivojlantiruvchi mashqlarni tushuntirib bering?
13. Yugurish turlari va ularning bir-biridan farqi nimada?
14. Basketbol o‘yining asosiy qoidalari.
15. Jismoniy sifatlari va uni rivojlantirish uslublariga tushuncha bering.
16. Epchillik deb nimaga aytildi? Epchillikni rivojlantiriuvchi mashqlarni tushuntirib bering?

17. Olimpiya o‘yinlarining kelib chiqish tarixi. (MOQ, XOQ).
18. Voleybol o‘yini haqida (qachon, qayerda va kim tomonidan o‘ylab topilgan hamda o‘yin maydoni o‘lchami, to‘pining og‘irligi, aylanasi) yozing.
19. Suzishning qanday usullarini bilasiz.
20. Kurash bilan shug‘ullanishdan oldin qanday jismoniy tayyorgarlik mashqlari bajariladi?
- 21.“Algomish ” ba “Barchinoy” maxsus test sinovlari qachon va nima maqsadda Respublikamizga joriy etildi hamda u o‘z ichiga necha yoshda bo‘lgan aholini qamrab oladi?
22. Voleybol o‘yinining asosiy qoidalari.
23. Yugurib kelib uzunlikka sakrashni bajarishda nechta faza amalga oshiriladi?
24. Arqonga tirmashib chiqish usullari va ularni bajarish tartibi.
25. Kurash atama va iboralari, 15 ta usulni sanab bering.
26. Gандbol o‘yini haqida (qachon, qayerda va kim tomonidan o‘ylab topilgan hamda o‘yin maydoni o‘lchami, to‘pining og‘irligi, aylanasi) yozing.
27. Voleybol o‘yinida hujum va himoya taktikasi nimalardan iborat?
- 28.“O‘zbekiston iftixonlari” fahriy unvoniga sazovor bo‘lgan 20 nafar sportchilarni sanab, sport turlarini aytib bering.
29. Shahsiy va jamoat gigiyenasi qoidalariiga qanday rioya qilish kerak? “Sog‘lom turmush tarzi“ deganda nimani tushunasiz?
30. Yugurish turlari va ularning bir-biridan farqi nimada?

AMALIY SINOV - MASHQLARI (Qiz bolalar)

1-Bilet

- 1. Gimnastika.** Gimnastik o‘rindiqqa tayanib, qo‘llarni bukish va yozish.
Me’yor: (marta) 13 – 10 – 8 – 6.
- 2. Yengil atletika.** 4x10 metrga mokisimon yugurish.
Me’yor: (soniya) 10,0 – 10,5 – 11,0 – 11,5.
- 3. Gандbol.** To‘pini texnikaga ahamiyat qaratgan holda 30 metr masofaga to‘pni urib yugurish.
Me’yor: (soniya) 6,8 – 6,9 – 7,0 – 7,2.
- 4. Kurash.** “Orqadan chalish” usuli.
Me’yor: Texnikasiga ahamiyat qaratish.

2-Bilet

- 1. Gimnastika.** 110 sm balandlikdagi gimnastika “kozyoli” ustidan oyoqlarni kerib sakrab o‘tish.
Me’yor: Texnikasiga ahamiyat qaratish.
- 2. Yengil atletika.** 1000 metrga yugurish.
Me’yor: (daqiqqa) 5,00 – 5,30 – 6,00 – 6,30.

3. Futbol. Texnikaga ahamiyat qaratgan holda 30 metr masofaga to‘p bilan yugurish.

Me’yor: (soniya) 5,7 – 6,0 – 6,3 – 6,5.

4. Kurash. “Oldindan chalish” usuli.

Me’yor: Texnikasiga ahamiyat qaratish.

3-Bilet

1. Gimnastika. Yakkacho‘pda turli harakat mashqlarini (yurish, burilish) bajarish. “Qaldirg‘och” hosil qilish.

Me’yor: Texnikasiga ahamiyat qaratish.

2. Yengil atletika. 60 metrga yugurish.

Me’yor: (soniya) 9,5 – 10,0 – 10,5 – 11,0.

3. Basketbol. Basketbol to‘pni 8 imkoniyatdan jarimadan tashlash.

Me’yor: (aniq otilgan to‘plar soni / marta) 4 – 3 – 2 – 1.

4. Kurash. “Oyoq yonidan qoqib yiqitish” usuli.

Me’yor: Texnikasiga ahamiyat qaratish.

4-Bilet

1. Gimnastika. 5 metrli arqonga qo‘llar yordamida tirmashib chiqish.

Me’yor: Texnikaga rioya etgan holda.

2. Yengil atletika. Yugurib kelib balandlikka sakrash.

Me’yor: (sm) 115 – 105 – 95 – 85.

3. Voleybol. Voleybol texnika elementlarini bajarish: to‘pni ikkala qo‘l bilan qabul qilish, uzatish, to‘pni yuqoridan uzatish (uzatilgan to‘p maydonning belgilangan joyiga albatta tushishi).

M’yor: Texnikasiga ahamiyat qaratish.

4. Kurash. “Oyoq oldidan qoqib yiqitish” usuli.

Me’yor: Texnikasiga ahamiyat qaratish.

5-Bilet

1. Gimnastika. Akrobatika: Ikki marta oldinga, orqaga umbaloq oshish, kurakda turish. “Ko‘prik” hosil qilish.

Me’yor: Texnikasiga ahamiyat qaratish.

2. Yengil atletika. 2000 metrga yugurish.

Me’yor: vaqt hisobga olinmaydi.

3. Basketbol. Basketbolda belgilangan jarima to‘pni 8 imkoniyatdan tashlash.

Me’yor: (aniq otilgan to‘plar soni / marta) 4 – 3 – 2 – 1.

4. Kurash. “Ichkaridan boldir boldirni orqasiga tashlash” usuli.

Me’yor: Texnikasiga ahamiyat qaratish.

(O‘g‘il bolalar)

1-Bilet

1. Gimnastika. 120 sm balandlikdagi gimnastik “kon” ustidan oyoqlarni kerib sakrab o‘tish.

Me'yor: Texnikasiga e'tibor qaratish.

2. Yengil atletika. 60 metrga yugurish.

Me'yor: (soniya) 9,0 – 9,5 – 10,0 – 10,5.

3. Basketbol. Basketbolda belgilangan jarima to‘pini 8 imkoniyatdan tashlash.

Me'yor: (aniq otilgan to‘plar soni / marta) 5 – 4 – 2 – 1.

4. Kurash. “Oyoq yordamida oyoqlar ichidan ko‘tarib tashlash” usuli.

Me'yor: Texnikasiga ahamiyat qaratish.

2-Bilet

1. Gimnastika. Baland turnikda tortilish.

Me'yor: (marta) 9 – 7 – 5 – 3.

2. Yengil atletika. 2000 metrga yugurish.

Me'yor: (daqqa) 9,30 – 10,00 – 11,00 – 12,00.

3. Gандbol. Qo‘l to‘pni texnikaga ahamiyat qaratgan holda 30 metr masofaga to‘pni urib yugurish.

Me'yor: (soniya) 6,6 – 6,7 – 6,8 – 7,0.

4. Kurash. “Oyoqlar yordamida yon boshdan ko‘tarib tashlash” usuli.

Me'yor: Texnikasiga ahamiyat qaratish.

3-Bilet

1. Gimnastika. Arg‘amchida 1 daqqa davomida sakrash.

Me'yor: (marta) 90 – 80 – 70 – 65.

2. Yengil atletika. 4x10 metrga mokisimon yugurish.

Me'yor: (soniya) 9,5 – 9,8 – 10,3 – 10,8.

3. Futbol. To‘pni zarb bilan uzoqqa tepish (o‘ng va chap oyoqda tepilgan to‘plar yig‘indisi).

Me'yor: (metr) 60 – 55 – 50 – 40.

4. Kurash. “Yelkadan oshirib tashlash” usuli.

Me'yor: Texnikasiga ahamiyat qaratish.

4-Bilet

1. Gimnastika. 5 metrli arqonga, qo‘llar yordamida tirmashib chiqish.

Me'yor: Texnikaga rioya etgan holda.

2. Yengil atletika. 1000 metrga yugurish.

Me'yor: (daqqa) 3,40 – 4,00 – 4,30 – 5,00.

3. Futbol: Futbol to‘pi bilan oyoqda jonglyorlikni bajarish.

Me'yor: (marta) 20 – 18 – 15 – 12.

4. Kurash. “Ichkaridan boldir boldirni orqasiga tashlash” usuli.

Me'yor: Texnikasiga ahamiyat qaratish.

5-Bilet

1. Gimnastika. Yakkacho‘pda turli harakat mashqlarini (yurish, burilish) bajarish. “Qaldirg‘och” hosil qilish.

Me'yor: Texnikasiga ahamiyat qaratish.

2. Yengil atletika: Yugurib kelib tennis to‘pni (150 gr) uloqtirish.

Me’yor: (metr) 45 – 40 – 33 – 25.

3. Voleybol. Voleybol texnika elementlarini bajarish: to‘pni ikkala qo‘l bilan qabul qilish, uzatish, to‘pni yuqoridan uzatish (uzatilgan to‘p maydonning belgilangan joyiga albatta tushishi).

Me’yor: Texnikasiga ahamiyat qaratish.

4. Kurash. “Oyoq yonidan qoqib yiqitish” usuli.

Me’yor: Texnikasiga ahamiyat qaratish.

